

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI
HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.37/27.02.2020.Yu.107.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI
HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI

MUROTOV NURIDDIN NAMOZOVICH

TADBIRKORLIK FAOLIYATI PRINSIPLARINI AMALGA
OSHIRISHNING NAZARIY-AMALIY MASALALARI

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi. Oila huquqi.
Xalqaro xususiy huquq

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Dostor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Murotov Nuriddin Namozovich

Tadbirkorlik faoliyati prinsiplarini amalga oshirishning nazariy-amaliy masalalari.....3

Муротов Нуриддин Намозович

Теоретико-практические вопросы реализации принципов предпринимательской деятельности.....19

Murotov Nuriddin Namozovich

Theoretical and practical issues of implementing the principles of entrepreneurial activity.....37

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ.....41

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI
HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.37/27.02.2020.Yu.107.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI
HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI**

MUROTOV NURIDDIN NAMOZOVICH

**TADBIRKORLIK FAOLIYATI PRINSIPLARINI AMALGA
OSHIRISHNING NAZARIY-AMALIY MASALALARI**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi. Oila huquqi.
Xalqaro xususiy huquq

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Dostor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Yu867 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Sudyalar oliy maktabida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.sudyalaroliymaktabi.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nasriyev Ixxom Ismoilovich
yuridik fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Topildiyev Baxromjon Raximjonovich
yuridik fanlar doktori, professor

Abdusalomov Mirza-Ulug‘bek Elchiyevich
yuridik fanlar nomzodi

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi huzuridagi PhD.37/27.02.2020.Yu.107.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil 25-dekabr kuni soat 9.30 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100097, Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Cho‘ponota ko‘chasi, 6-uy. Tel.: (+998)555010189; faks: (+998)555010189, e-mail: sudyalaroliymaktabi@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Sudyalar oliy maktabining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (14-23-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100097, Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Cho‘ponota ko‘chasi, 6-uy. Tel.: (+998)555010189; faks: (+998)555010189, e-mail: sudyalaroliymaktabi@umail.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil 12-dekabr kuni tarqatildi.

(2023-yil 12-dekabrda 4-raqamli reyestr bayonnomasi).

K.O.Sindarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
yuridik fanlar doktori, professor

D.R.Artikov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD)

B.B.Samarxodjaye

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda tadbirkorlikning jadal va tez sur'atlar bilan rivojlanishi sohaga oid qonunchilik oldiga ham yangi talablarni qo'yimoqda. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilish ko'p jihatdan tadbirkorlik faoliyati prinsiplarini amalga oshirish bilan uzviy bog'liq. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida, xususan, Germaniyada prinsiplar sudlar tomonidan umumiy-huquqiy normalar bilan birgalikda qo'llaniladi¹.

Jahonda raqamli iqtisodiyot zamonaviy ilm-fanning eng ko'p muhokama qilinadigan muammolaridan biriga aylanmoqda. Davlat tomonidan raqamlashtirishni rivojlantirish, yangi sharoitlarda tartibga solish ta'siri samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan faoliyatni faollashtirish yuzasidan qabul qilingan qarorlarga qaramay, raqamli iqtisodiyot sharoitlarida tadbirkorlik huquqini rivojlantirishning, tadbirkorlik faoliyati prinsiplarini amalga oshirish qoidalarning aniq konsepsiyasi hanuzgacha ishlab chiqilmagan.

O'zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish Konsepsiyasida "adolatli kompensatsiya" kabi an'anaviy fuqarolik-huquqiy institutning mavjud emasligi ta'kidlanib, jamiyat va xalqaro standartlarning axloqiy prinsip va ma'naviy me'yorlari ("halollik", "adolat", "oqillik" va boshqa prinsiplar)ni inobatga olgan holda fuqarolik-huquqiy munosabatlarning amaldagi prinsiplarini takomillashtirish va yangilarini joriy qilish vazifasi qo'yilgan. 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiyl sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish maqsadi (29-maqсад) qo'yilgan².

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (1995, 1996), "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi (2012), "Raqobat to'g'risida"gi (2012) "Davlat-xususiyl sheriklik to'g'risida"gi (2019) qonunlarida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni hamda 2019-yil 5-apreldagi F-5464-son Farmoyishi bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi va tadbirkorlik sohasidagi oid boshqa qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirishga ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya respublikada fan va texnologiyani rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiyl, huquqiy, iqtisodiy, madaniyl, ma'naviy va ma'rifiyl rivojlantirishda innovatsion

¹ <https://www.bverwg.de/en/160620U2C20.19.0>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/5841063>

g'oyalar tizimini shakllantirish hamda ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Bugungi kunga qadar tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solish masalalari mamlakatimiz huquqshunos olimlari tomonidan alohida ilmiy maqolalar, tezislar, monografiyalarning qismlari ko'rinishida o'rganilgan. Jumladan, H.R. Rahmonqulov, O. Oqyulov, A.X. Saidov, F.X. Otaxonov, S.S. G'ulomov, I.I. Nasriyev, Sh.N. Ruzinazarov, I.R. Rustambekov, Sh.M. Asyanov, Sh.M. Masadikov, A.A. Muhammadiyev, B.B. Samarxo'jayev, K.X. Abdurahmonov, V.Ye. Ergashev, X. Azizov, X.S. Asadov, D.M. Qoraxo'jayeva, N.F. Imomov va boshqalar o'z ilmiy ishlarida tadbirkorlik faoliyatiga oid muammolarni, davlat-xususiy sheriklik, tadbirkorlikka oid qonunchilikni kodifikatsiyalashtirish, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda ommaviy manfaatlarni ham, xususiy manfaatlarni ham himoya qilish bilan bog'liq umumiy-nazariy masalalarni o'rganganlar¹.

Yaqin xorijiy mamlakatlarda tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solishning umumiy-nazariy va maxsus masalalari S.S. Alekseyeva, L.V. Andreyeva, M.K. Suleymenova, V.S. Belix, A.I. Golubnicheva, V.A. Mamontova, Ya.A. Kurbatova, D.I. Stepanova, R.V. Shagiyeva, N.N. Nadejina, L.A. Nudnenko, S.A. Glotova, I.A. Aleshkova, V.F. Popondopulo, V.V. Kvanina va boshqalarning tadqiqotlarida, shuningdek uzoq xorijiy mamlakatlardagi mutaxassislardan Newill Brown L., Melville L., Collmonn R., Rolf Knieperlarning ilmiy ishlarida o'rganilgan².

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan va "Tadbirkorlik faoliyati prinsiplarini amalga oshirishning nazariy-amaliy masalalari" ilmiy tadqiqoti ustuvor yo'nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyati prinsiplarini huquqiy tartibga solish va amalga oshirishni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- tadbirkorlik faoliyati prinsiplarining paydo bo'lishi va rivojlanish tarixini o'rganish;

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bo'yicha tadbirkorlik faoliyati prinsiplarining huquqiy asoslarini kompleks tahlil qilish;

- tadbirkorlik faoliyati prinsiplar hamda ommaviy huquq va xususiy huquq prinsiplari o'rtasidagi o'zaro nisbatni tadqiq etish;

- fuqarolik bitimlarida (shartnomalarida) tadbirkorlik faoliyati prinsiplarini qo'llashni takomillashtirish masalalarini o'rganish;

- tadbirkorlik faoliyati prinsiplarini amaliyotda qo'llashga oid xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil qilish;

¹ Mazkur olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiya ishining foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida berilgan.

² Mazkur olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiya ishining foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida berilgan

- tadbirkorlik faoliyati prinsiplarini amalga oshirishda ommaviy huquq va xususiy huquq manfaatlari mutanosibligini huquqiy ta'minlash usullarini tahlil qilish;

- tadbirkorlik faoliyati prinsiplarini amaliyotda qo'llashning asosiy muammolarini aniqlash va ularni hal qilish yo'llarini ishlab chiqish;

- O'zbekiston Respublikasining tadbirkorlik sohasidagi qonunchiligini takomillashtirish va tadbirkorlik faoliyati prinsiplarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot obyekti O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik sohasidagi ijtimoiy-huquqiy munosabatlardir.

Tadqiqot predmetini O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi va huquqni qo'llash amaliyoti, xorijiy mamlakatlar tajribasi, shuningdek yuridik fanda mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish sohasidagi ilmiy-nazariy qarashlar va mulohazalar tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot davomida dialektik, formal-huquqiy, tizimli-tarkibiy, tarixiy-huquqiy, qiyosiy-huquqiy, formal-mantiqiy (tahlil, sintez, deduksiya va induksiya) va statistik usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tadbirkorlik faoliyatining eng muhim prinsiplari sifatida halol raqobat va xususiy mulk daxlsizligini Konstitutsiya darajasida mustahkamlab qo'yish lozimligi asoslab berilgan;

tadbirkorlar qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirishga va o'z faoliyati yo'nalishlarini mustaqil ravishda tanlashga haqli ekanligini Konstitutsiyada belgilab qo'yish zarurligi asoslangan;

Konstitutsiya normalarida belgilangan tadbirkorlik faoliyatiga oid prinsiplar sudlar amaliyotida to'g'ridan-to'g'ri va bir xilda qo'llanilishi zarurligi asoslangan;

tadbirkorlarga davlat organlari yoxud ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi oqibatida yetkazilgan zarar ixtiyoriy ravishda qoplanmagan taqdirda, uning o'rnini manfaatdor shaxsning arizasiga asosan sud tartibida davlat tomonidan qoplanishi kafolatlanishi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadbirkorlik faoliyatiga mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan va uni qonunchilikda aks ettirish zarurati asoslab berilgan;

tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda halollik prinsipini huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yish lozimligi asoslangan;

tadbirkorlik subyektlarini kontragentlarning insofsiz harakatlaridan huquqiy himoya qilishni kuchaytirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan;

O'zbekiston Respublikasining Tadbirkorlik kodeksi loyihasini takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan;

sudlar iqtisodiy ishlarni ko'rib chiqish chog'ida halollik, oqillik va adolat prinsiplarini amalga oshirish maqsadida boy berilgan foyda, neustoyka shaklida zararni undirishda ularning miqdorini yuqoridagi prinsiplarni hisobga olgan holda, shartnoma (bitim) summasining 50 foizidan oshmaydigan miqdorda belgilashi lozimligi asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi va asoslanganligi tegishli metodologiyadan foydalanish, rivojlangan mamlakatlar qonunchiligi va tajribasini milliy qonunchilik normativ-huquqiy hujjatlari bilan qiyosiy tahlil qilish, mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar hamda normativ hujjatlarni tahlil qilish, tadqiqot natijalarini davlat organlari tomonidan tasdiqlash va amaliyotga tatbiq etish bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ilmiy-nazariy tahlil asosida olingan natijalardan ushbu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borishda, qonun ijodkorligida, huquqni qo'llash amaliyotida, tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishga qaratilgan qonunchilik normalarini sharhlashda, tadbirkorlikka oid qonunlarga sharhlar va darsliklar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ulardan qonun ijodkorligi faoliyatida, shu jumladan normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish hamda ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish jarayonida, huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishda, shuningdek oliy yuridik ta'lim muassasalarida tadbirkorlik va fuqarolik huquqi fanlarini o'qitishda, iqtisodiy va fuqarolik sud ishlarini yuritishda foydalanish imkoniyati mavjud.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot ishi bo'yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

tadbirkorlik faoliyatining eng muhim prinsiplari sifatida halol raqobat va xususiy mulk daxlsizligini Konstitutsiya darajasida mustahkamlab qo'yish lozimligiga oid taklif 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan referendumda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'RQ-837-son Konstitutsiyaviy Qonuni bilan tasdiqlangan yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 65-moddasini ishlab chiqishda inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining 2023-yil 25-avgustdagi 60-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi halol raqobat va xususiy mulk daxlsizligi prinsiplari Konstitutsiyada belgilanishiga xizmat qilgan;

tadbirkorlar qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirishga va o'z faoliyati yo'nalishlarini mustaqil ravishda tanlashga haqli ekanligini Konstitutsiyada belgilab qo'yish zarurligiga oid taklif 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan referendumda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'RQ-837-son Konstitutsiyaviy Qonuni bilan tasdiqlangan yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 67-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining 2023-yil 25-avgustdagi 60-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi tadbirkorlik faoliyatining erkinligi prinsipi Konstitutsiya darajasida mustahkamlanishiga xizmat qilgan;

Konstitutsiya normalarida belgilangan tadbirkorlik faoliyatiga oid prinsiplar sudlar amaliyotida to'g'ridan-to'g'ri qo'llanilishi zarurligiga oid taklif O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023-yil 23-iyuldagi "Odil sudlovni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalarini to'g'ridan-to'g'ri

qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 16-son qarorini ishlab chiqishda inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2023-yil 23-avgustdagi 08/634-23-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi odil sudlovni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalarini to'g'ridan-to'g'ri va va bir xilda qo'llanilishini ta'minlashga xizmat qilgan;

tadbirkorlarga davlat organlari yoxud ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi oqibatida yetkazilgan zarar ixtiyoriy ravishda qoplanmagan taqdirda, uning o'rni manfaatdor shaxsning arizasiga asosan sud tartibida davlat tomonidan qoplanishi kafolatlanishiga oid taklif O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023 yil 23 iyuldagi "Odil sudlovni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalarini to'g'ridan-to'g'ri qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 16-son qarorini ishlab chiqishda inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2023-yil 23-avgustdagi 08/634-23-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi tadbirkorlik subyektlariga yetkazilgan zararning qoplanishiga oid huquqiy mexanizmni takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy tadbirlarda, shu jumladan 2 xalqaro va 2 respublika anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish, jumladan 5 ilmiy maqola (ulardan 1 tasi xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 156 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYA ISHINING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish (dissertatsiya annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiq etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi hamda ularning ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinganligi, aprotatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Tadbirkorlik faoliyati prinsiplarining mohiyati va mazmuni**" deb nomlangan bo'lib, unda tadbirkorlik faoliyati prinsiplari tushunchasini aniqlash, prinsiplarning ommaviy va xususiy huquqda namoyon bo'lishi masalalari, shuningdek tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda prinsiplarning ahamiyati tahlil qilingan.

Muallif "tadbirkorlik faoliyati prinsiplari" tushunchasini ochib berishga ilmiy yondashuvlar sharhini keltirib, buning asosida tadbirkorlik faoliyati tadbirkorlik huquqi normalariga asoslanishi hamda tadbirkorlik huquqi prinsiplari bevosita

tadbirkorlik faoliyatida amalga oshirilishini ta'kidlaydi. Tadbirkorlik faoliyati prinsiplarini tadbirkorlik munosabatlarining butun tizimiga singib ketganligi, jamiyatning iqtisodiy hayoti qonuniyatlarini tavsiflovchi rahbariy asoslar sifatida belgilanishi, prinsiplar o'z ahamiyatiga ko'ra ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning predmeti, usuli, huquqiy prezumpsiyalar kabi tizimni tashkil etuvchi omillarga taalluqliligi asoslantirilgan.

Dissertatsiyada tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda xususiy va ommaviy manfaatlarining zaruriy muvozanatini ta'minlash masalalari ko'rib chiqiladi. Xususiy va ommaviy manfaatlarni uyg'unlashtirish prinsipi xulq-atvorning xususiy-huquqiy modeliga asoslangan, ammo ommaviy manfaatlarni hisobga olishga majbur bo'lgan tadbirkorlik faoliyati uchun prinsipial jihatdan muhimligi asoslantirilgan.

Tadqiqotchining fikriga ko'ra, tadbirkorlikni huquqiy tartibga solish davlat tomonidan tadbirkorning shaxsiy ishlariga yetarli asoslarsiz aralashmaslik, tadbirkorning shaxsiy ishlariga nisbatan davlat tomonidan cheklashlarning mutanosibliigi prinsiplariga va ommaviy subyektlar tomonidan yetkazilgan zararni to'liq qoplash prinsipiga asoslanishi, tadbirkorlik munosabatlarining har bir subyekti o'z huquqlarini amalga oshirish va majburiyatlarni bajarish bo'yicha mustaqil ravishda qaror qabul qiladigan sharoitlarda u to'g'ri qarorlar qabul qilish uchun zarur ko'nikmalarga ega bo'lishi, qabul qilinadigan qarorlarning iqtisodiy jihatdan oqilonaligini ta'minlaydigan mexanizmlar va biror-bir alohida subyektning (jamoa yoki individual) manfaatlari foydasiga undan chetga chiqishga yo'l qo'ymagan holda xususiy hamda ommaviy manfaatlarni muvozanatlash prinsipining rahbarlik rolini ta'minlashi, bunday ko'nikmalarni egallashni osonlashtiradigan rag'batlantiruvchi omillardan biri bo'lishi va mazkur chetga chiqish muqarrar ravishda manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqarishi asoslantirilgan.

Dissertatsiyada tadbirkorlik faoliyatida va uning prinsiplarini amalga oshirishda bo'lgani kabi xususiy va ommaviy manfaat ko'pincha bir-biri bilan shunday uzviy bog'liq ekanligi, birinchisini cheklash ikkinchisiga muqarrar ta'sir ko'rsatishi va natijada nomutanosiblikka olib kelishi, bu esa birgalikda har ikkala manfaatga nisbatan kompleks ta'sir ko'rsatish zaruratini keltirib chiqarishi, xususiy manfaatlarni amalga oshirgan holda tadbirkorlik subyektlari ommaviy funksiyalarni bajarishi va shu orqali ommaviy manfaatlarni amalga oshirishi, bu nafaqat xususiy manfaatlarni amalga oshirish chegaralarini belgilab berishi, balki xususiy va jamoat manfaatlari o'rtasidagi ziddiyatlar qarama-qarshiliklar uchun zamin yaratishi asoslantirilgan.

Tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solish prinsiplari muammolarini o'rganish yuridik fanda dolzarb bo'lib qolayotgani va ularning soni hamda tizimda o'zaro bog'liqliklar to'g'risida tobora ko'proq tasavvurlar paydo bo'lishiga sabab bo'layotgani dissertatsiya muallifi tomonidan qayd etilgan. Bunday vaziyatda asoslangan tahlil qilish va ta'limot bilan bog'liq bilimlarni ushbu hodisaning mohiyati, ichki tuzilishini tushunishga yaqinlashtirish uchun muhim va zarur bosqichligi asoslab berilgan.

Maqsadlar qo'llash predmeti, doirasiga mos kelishi va muqarrar ravishda ular tomonidan belgilanishi kerak. Tadbirkorlik faoliyati prinsiplari amalga oshirilganda

iqtisodiy makonning birligi, tovarlarning erkin harakatlanishi, tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilayotgan tovar bozorlarida mazkur faoliyat ishtirokchilarining tengligi asosida raqobat, tadbirkorlik faoliyatida ommaviy va xususiy manfaatlarining oqilona uyg'unligini ta'minlaydi, bu esa pirovard natijada davlat iqtisodiyotining muvaffaqiyatli rivojlanishining asosiy elementi bo'lib xizmat qilishi asoslantirilgan.

Muallif huquqiy tartibga solish doirasida tadbirkorlik faoliyati erkinligi va uni himoya qilish, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va uning natijalari xavfsizligi kabi prinsiplarni asosiy tamoyillar sifatida ajratib ko'rsatish mumkin, deb hisoblaydi. Mazkur prinsiplar fundamental (asosiy) bo'lib ko'rinadi, chunki ular umumiy erkinlik va har kimning himoyalani huquqi haqidagi, shuningdek boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini buzishga yo'l qo'yilmasligi to'g'risidagi belgilangan va umume'tirof etilgan qoidalarda namoyon bo'lishi asoslantirilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Prinsiplar tizimi va ularning ilmiy-amaliy tahlili”** deb nomlangan bo'lib, unda tadbirkorlik faoliyati prinsiplarini tizimlashtirish va ularning ilmiy-amaliy tahlilini o'tkazish masalalarini ko'rib chiqilgan.

Dissertant tomonidan tadbirkorlik faoliyatida qonuniylik prinsipi tushunchasi aniqlashtiriladi, uning belgilari, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish chog'idagi roli va ahamiyati ochib beriladi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarining tadbirkorlik sohasidagi faoliyatini tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida va mahalliy yuridik adabiyotlarda tadbirkorlik faoliyati prinsiplarining yagona, unifikatsiyalangan ro'yxati mavjud emasligi, mazkur prinsiplar muhim ahamiyatga egaligi, chunki ular o'zi bilan qonunchilik hujjatlari mavjud bo'lmaganda yoki ulardagi ziddiyatli hollarda umumiy huquqiy, normativ xususiyatga ega bo'lgan yo'riqnomalar shaklida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini ifodalashi va ularni tizimga keltirish qonun chiqaruvchi, tadbirkorlar va sudlarga ularni huquqni qo'llash amaliyotida ijrosini aniq va samarali belgilash imkonini berishi asoslantirilgan.

Tadbirkorlik faoliyatini, xususan, daromad keltiruvchi faoliyatni baholashda huquqning universal prinsipi sifatida qonuniylik nuqtai nazaridan kelib chiqish zarurligi, bu amaldagi qonunchilik normalariga rioya qilishda va faqat qonun doirasidagi harakatlarni amalga oshirishda ifodalanishi asoslantirilgan. Bir tomondan, qonun tadbirkorlik va daromad keltiruvchi faoliyat turlarini tanlashda kengroq erkinlik beradi; boshqa tomondan, bunday keng erkinlik cheksiz emas – u qonun bilan taqiqlangan faoliyat turlariga nisbatan, maqsadlarga erishish va maqsadlarga muvofiqlik mezonlari bilan cheklanishi ta'kidlangan.

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda subyektlarning teng asosda ishtirok etishi, ularning qonun oldida tengligini subyektlar “huquqiy maqomining tengligi”, ya'ni mulkchilik shakli (davlat yoki xususiy), tashkiliy-huquqiy shakllari, yuridik shaxslarning ro'yxatga olingan joyi, fuqaroligi, yashash joyi (turgan joyi), ularning mulkiy va mansab mavqeidan qat'i nazar, barcha subyektlar uchun munosabatlarda ishtirok etish imkoniyatlarining tengligi sifatida qaralishi asoslantirilgan.

Dissertatsiyada dispozitivlik tadbirkorlik huquqining prinsipi bo'lib, tadbirkorlik subyektlari tomonidan huquqlarni olish, realizatsiya qilish va himoya qilish chog'ida o'z xohish-irodasini, tashabbuskorligini, muayyan xatti-harakatlarni

erkin tanlashni anglatishi, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida dispozitiv normalar sonining ko‘payishi zamonaviy milliy qonunchilikda fuqarolar va yuridik shaxslarning tashabbus va g‘ayratini uyg‘otishi, mustaqilligi va tashabbuskorligini kengaytirishi, ularga o‘z xohishiga ko‘ra, erkin, ammo qonun doirasida huquqiy masalalarni, shu jumladan tijorat, tadbirkorlik sohasidagi masalalarni hal etish imkoniyatini taqdim etishga qaratilgan umumiy tendensiyani aks ettiradi.

Tadqiqotchi “tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish” prinsipining ta’rifi yetarli darajada aniq emasligiga e’tibor qaratadi, uning asoslanishi zahirida iqtisodiyotga davlat tomonidan tartibga solishning (ta’sirning) turli shakllari va vositalarini qo‘llash mezonidan foydalanilganligi sababli, aslida mazkur prinsip ostida tadbirkorlik faoliyatini davlat va boshqa ijtimoiy tartibga solishda muvozanatga erishish prinsipi yotishini asoslab beradi.

Xususiy ishlarga hech kimning o‘zboshimchalik bilan aralashishiga yo‘l qo‘yilmasligi prinsipini hayotga tatbiq etish deganda, davlat hokimiyati hamda boshqaruv organlari, ota-onalar, xizmatdagi rahbarlar va boshqa shaxslarning muomalaga layoqatli fuqarolar yoki yuridik shaxslarning o‘z mol-mulkini tasarruf etishi, foydani taqsimlashi va daromaddan foydalanishiga aralashishini taqiqlash tushunilishi asoslantirilgan.

Dissertant axloqiy qoidalarga ham, jumladan qonunchilik mazmunini o‘z ichiga olgan norma sifatida halollik prinsipiga alohida e’tibor qaratgan. Doktrina, dogma va huquqni qo‘llash amaliyotida “halollik”, “adolat” tushunchalari turli ma’nolarda qo‘llaniladi, ba’zan ular juda keng bo‘lib, har doim ham huquqiy oqibatlariga olib kelmasligini isbotlangan. Halollik va adolat – bu o‘zaro bog‘langan, bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish yo‘nalishlarini belgilab beruvchi, bir xil nomdagi prinsiplarni qonunchilikda ifodalash uchun dastlabki asos bo‘lib xizmat qiluvchi baholovchi tushunchalar ekanligi asoslab berilgan.

Shunday qilib, halollik prinsipi deganda: a) huquqni uning tizimli vazifasiga zid bo‘lgan holda amalga oshirishga (jumladan, uni belgilash va himoya qilishga) taqiq; b) huquqiy noaniqlik sharoitida huquqlarni insofsiz amalga oshirishga (yoki majburiyatlarni bajarishga) taqiq; v) fuqarolik huquqlaridan (majburiyatlaridan) axloqsiz, xudbinlik bilan foydalanishga taqiq; g) o‘z huquqini rasman amalga oshirish orqali kimgadir qasddan zarar yetkazishga taqiq; d) halol raqobat qoidalarini buzishga taqiq deb tushunilishi kerakligi asoslantirilgan.

O‘zbekistonda “lafz” tushunchasi qadimdan qo‘llanilgan bo‘lib, u berilgan va’da, so‘z ma’nosini anglatadi. Bu bitim tuzishda biznes odatidir. “Lafz”ni buzgan kishi muayyan doiralarda o‘z obro‘cini, ishchanlik obro‘cini yo‘qotadi. Bu tushuncha fuqarolik muomalasi ishtirokchilarini insofsiz harakatlarni amalga oshirishdan tiyib turishi ta’kidlangan.

Iqtisodiy rivojlanishning qayd etilgan tendensiyalari nafaqat adekvat huquqiy tartibga solishni, balki o‘zgaruvchan xo‘jalik yuritish sharoitlarini, davlat va jamiyat, davlat va biznes o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni nazariy jihatdan tushunishni ham talab qiladi. Muallif fikricha, aynan tadbirkorlik huquqi fani raqamli iqtisodiyotni huquqiy jihatdan tartibga solishning asosiy konseptual

qoidalarini, asosini, shuningdek raqamlashtirish davrida tadbirkorlik faoliyati prinsiplarining o‘rni, ahamiyati va ularni rivojlantirish hamda amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlarini aniqlay oladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Qonunchilikni takomillashtirish va tadbirkorlik prinsiplaridan huquqni qo‘llash amaliyotida foydalanish**” deb nomlangan bo‘lib, ushbu bob tadbirkorlik prinsiplaridan huquqni qo‘llash amaliyotida foydalanishda nazariy va amaliy muammolarni ko‘rib chiqish va tahlil qilishga, shuningdek mazkur prinsiplarni amalga oshirish sohasida qonunchilikni takomillashtirish istiqbollari o‘rganishga hamda tadbirkorlik faoliyati sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishga bag‘ishlangan.

Tadqiqotchi tomonidan tadbirkorlik faoliyati prinsiplarini qonunchilik hujjatlarida mustahkamlab qo‘yish va amaliy faoliyatga tatbiq etishning o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rib chiqilib, ushbu sohadagi mahalliy tajribani tahlil qilish doirasida muallif mazkur huquq prinsiplarini huquqiy tartibga solishda mavjud muammolarga e‘tibor qaratib, tadbirkorlik faoliyati sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha takliflarni ilgari suradi.

Tadbirkorlik faoliyati prinsiplari normativ hujjatlarni tayyorlash va qabul qilish, kafolatlarni belgilash, sud qarorlarini qabul qilish, huquq nomalarini sharhlash jarayoniga ta’sir qiladi. Kodifikatsiya muammolari qarama-qarshiliklarning mavjudligi, aniq tuzilma va huquq prinsiplarining birligini belgilovchi umumiy qoidalarning yo‘qligi kabi tadbirkorlik huquqining ayrim kamchiliklarini keltirib chiqarishi tahlil qilingan.

Dissertant Tadbirkorlik kodeksini qabul qilish uchun respublikamizda yetarli asoslar borligini takidlaydi va uning zaruratini quyidagi omillar bilan izohlaydi: tadbirkorlikni maqsadli davlat tomonidan tartibga solishning adolatli asosi va aniq mezonlarini yaratish, tadbirkorlik faoliyati erkinligining huquqiy kafolatlarini ta’minlash, tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va ta’minlash; ular uchun raqobatbardosh ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va davlatning ayrim funksiyalarini xususiy sektorga o‘tkazish, ishbilarmonlik odob-axloqi va korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillarni keng joriy etish, tadbirkorlikni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash borasida davlat organlarining (ayniqsa, mahalliy davlat hokimiyati organlarining) imkoniyatlarini va faoliyatini to‘liq safarbar qilish, davlatning iqtisodiyotga asossiz aralashuvining oldini olish va boshqa dolzarb vazifalar bilan bog‘liq.

Tadbirkorlik faoliyatida ijtimoiy adolat prinsipining funksional talabini amalga oshirish huquqni qo‘llash nuqsonlarini bartaraf etish, korrupsiyaga qarshi kurashish, tadbirkorlarni davlat hokimiyati organlarining aralashuvidan himoya qilish, sifatli odil sudlovni ta’minlashga qaratilgan. Halollik prinsipi tadbirkorlik faoliyatining asosiy prinsiplaridan biri sifatida **birdamlik, tenglik va ijtimoiy adolat prinsiplari** bilan uzviy bog‘liqligi asoslantirilgan.

O‘zbekistonda ingliz huquqi va qisman Yevropa huquqidan farqli o‘laroq, na huquqiy doktrina, na sud pretsedenti huquq manbalari hisoblanmaydi va huquqning

barcha manbalari, umuman olganda, qonunchlik hujjatlari bilan cheklangan. Dissertatsiyada bu yopiq doiradan chiqish yo‘li sifatida sudyalarga (a) huquqni nazariyada, ta’limotda, tadbirkorlik faoliyatining asosiy prinsiplarida izlash imkoniyatini berish va (b) uni qonunni bir xilda qo‘llash maqsadida sud tizimi uchun majburiy bo‘lgan qonunlarni o‘z mustaqil talqinlarida (sharhlarida) mustahkamlanishi zarurligi asoslantirilgan.

Bundan tashqari, tadbirkorlik faoliyati: 1) nafaqat tijorat yuridik shaxslarini (OAJ, MChJ va boshqa turdagi shirkatlar, ishlab chiqarish kooperativlari, xo‘jalik yuritish huquqiga ega davlat korxonalarini), balki tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishga haqli bo‘lgan notijorat tashkilotlarini ham tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish, jumladan bankrotlik; 2) tovarlar, ishlar va xizmatlarni yetkazib berishning shartnomaviy va boshqa shakllari (yetkazib berish, kontraktatsiya, lizing, franchayzing kabi tadbirkorlik bitimlari, shuningdek tadbirkorlar va tadbirkor bo‘lmaganlar ishtirokidagi munosabatlardan kelib chiqadigan boshqa shartnomalar, shu jumladan oldi-sotdi, ijara, pudrat shartnomalari va boshqa shu kabilar); 3) tadbirkorlarni soliqqa tortish masalalari, bojxona to‘lovlari; 4) tadbirkorlar tomonidan mulkiy va boshqa huquqlarni, jumladan intellektual mulk huquqini olish, yuklanish va begonalashtirish masalalari; 5) tadbirkorlarning javobgarligi; 6) tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda yuzaga keladigan boshqa ko‘plab munosabatlar (bank xizmatlari va boshqa shu kabilar) larni tartibga solish bilan bog‘liqligi Tadbirkorlik kodeksining asosiy muammosi bo‘lishi ta’kidlagan.

Tadbirkorlik kodeksiga qonuniylik, tadbirkorlik faoliyatining erkinligi, tadbirkorlik subyektlarining teng huquqliligi, halollik, birdamlik, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish kabi prinsiplarni kiritish taklifi ilgari surilgan.

XULOSA

“Tadbirkorlik faoliyati prinsiplarini amalga oshirishning nazariy-amaliy masalalari” mavzusidagi tadqiqot davomida ilmiy-nazariy, qonun ijodkorligi va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi xulosalar qilindi:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar

1.1. Tadbirkorlik huquqi prinsiplari tizimi ayrim umumiy-huquqiy, sohalararo va sohaviy prinsiplarni, shuningdek tadbirkorlik huquqining alohida huquqiy institutlari prinsiplarini o‘zida mujassamlashtiradi, degan xulosaga kelindi.

Bir vaqtning o‘zida tadbirkorlik huquqi prinsiplari tizimiga kiradigan umumiy huquqiy prinsiplarga qonuniylik va ijtimoiy adolat prinsiplari taalluqlidir.

Tadbirkorlik huquqining sohalararo eng muhim prinsiplariga tenglik, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tadbirkorlik faoliyatiga o‘zboshimchalik bilan aralashishga yo‘l qo‘ymaslik prinsiplarini, tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishda xususiy huquq va ommaviy huquq manfaatlari muvozanatiga erishish prinsipini kiritish lozim.

Tadbirkorlik huquqining sohaviy prinsiplari sarasiga tadbirkorlik faoliyatining erkinligi, tadbirkorlik rivojlanishini rag‘batlantirish, halol raqobat, tadbirkorlik

faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning samaradorligi va boshqalar kiradi va bu O‘zbekiston Respublikasining Tadbirkorlik kodeksi loyihasida o‘z ifodasini topgan.

1.2. Huquqning turli sohalaridan o‘zlashtirilgan tadbirkorlik huquqi prinsiplarining o‘zaro uzviy bog‘liqligi bizga qonuniyatdek ko‘rinadi, chunki u yoki boshqa huquq sohasi doirasida yaratilgan va amal qiladigan xulq-atvor qoidalari bir-biri bilan o‘zaro ta’sirlashadi, bunday o‘zaro ta’sir ularni yaratishda ham, huquqni qo‘llash jarayonida ham namoyon bo‘ladi. Konstitutsiyaviy hamda sohaviy prinsiplarga amal qilgan holda, tadbirkorlik faoliyatining bir butun tabiatini aks ettiruvchi xususiy va ommaviy manfaatlar muvozanatini ta’minlash mumkin.

Bundan tashqari, huquqiy prinsiplar qonunning o‘zida real tarzda ifodalanishi kerak. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1-moddasida fuqarolik qonunchiligining asoslari, prinsiplari, Iqtisodiy protsessual kodeksining 2-bobida iqtisodiy sudda ishlarni ko‘rish prinsiplari, Jinoyat-protsessual kodeksida (2-bob), Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda (3-modda) o‘z prinsiplari bevosita o‘z aksini topgan. Shuning bilan birga huquqiy prinsiplarning mazkur ro‘yxatlari yopiqdir. Huquqiy normalarda hali mustahkamlanmagan prinsiplarni huquqiy prinsiplar sarasiga kiritib bo‘lmaydi. Tadbirkorlik faoliyati prinsiplari O‘zbekiston Respublikasining Tadbirkorlik kodeksida belgilab berilishi va qonun bilan mustahkamlanishi kerak. Mazkur taklif O‘zbekiston Respublikasining Tadbirkorlik kodeksi loyihasida inobatga olingan bo‘lib, unga tadbirkorlik faoliyatining 16 ta prinsipi kiritilgan.

1.3. Xususiy va ommaviy manfaatlarni uyg‘unlashtirish prinsipi xulq-atvorning xususiy-huquqiy modeliga asoslangan tadbirkorlik faoliyati uchun prinsipial jihatdan muhim, ammo bunda ommaviy manfaatlarni hisobga olishga majburdir. Tadbirkorlik faoliyatida xususiy va ommaviy manfaatlarni uyg‘unlashtirish prinsipi ko‘pincha tadbirkorlik huquqining asosiy prinsiplari qatorida bayon qilinadi.

Tadbirkorlik faoliyati erkinligini ta’minlaydigan tadbirkorlik faoliyati prinsiplarini qonunchilikda mustahkamlab qo‘yish vositasida, ammo davlat nazorati ostida davlat-xususiy sheriklikni jadal rivojlantirgan holda xususiy tadbirkorlik manfaatlarini ham, ommaviy manfaatlarni ham ta’minlashning shakl va usullarini ishlab chiqish talab etiladi.

1.4. Ma’lumki, maqsadlar qo‘llash predmeti va sohasiga mos kelishi hamda muqarrar ravishda ular tomonidan belgilanishi kerak. Tadbirkorlik faoliyati prinsiplari ular amalga oshirilganda iqtisodiy makonning birligi, tovarlarning erkin harakatlanishi, tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilayotgan tovar bozorlaridagi raqobat, uning ishtirokchilarining tengligi, tadbirkorlik faoliyatida ommaviy va xususiy manfaatning oqilona uyg‘unligini ta’minlaydi, bu alal-oqibatda davlat iqtisodiyotining muvaffaqiyatli rivojlanishining asosiy elementi bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu qoidalarni hayotga tatbiq yetish uchun tadbirkorlik faoliyati prinsiplarini yagona qonunchlik hujjatlarida, xususan O‘zbekiston Respublikasi Tadbirkorlik kodeksining kodifikatsiyalangan hujjatida amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish va qonunlashtirish zarur. Ushbu qoidalarni amalga

oshirish maqsadida tadbirkorlik faoliyati prinsiplarini amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish va yagona qonunchilik hujjatida, maqbul ravishda O‘zbekiston Respublikasining Tadbirkorlik kodeksida qonunan mustahkamlab qo‘yish zarur.

1.5. Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni o‘rganish tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishda bir qator bo‘shliqlar va tizimning mavjud emasligini ko‘rsatdi, bu iqtisodiy sudlar tomonidan ko‘rib chiqilayotgan ko‘plab ishlarda (tijorat nizolarida) o‘z tasdig‘ini topmoqda. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdagi mazkur va boshqa muammolar loyihasi e‘lon qilingan va muhokama qilinayotgan O‘zbekiston Respublikasining Tadbirkorlik kodeksida hal etilishi zarur. Afsuski, taqdim etilgan O‘zbekiston Respublikasi Tadbirkorlik kodeksining loyihasi yuqoridagi barcha muammolarni hal eta olmaydi, chunki uning ta‘sir doirasi boshqa qonunlarning qoidalari – Fuqarolik kodeksi, tadbirkorlik sohasidagi qonunlar (ular 20 dan ortiq), qator muhim qonunosti hujjatlari (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari) bilan chegaralanmagan. Tadbirkorlik kodeksi loyihasi qayd etib o‘tilgan muammolarni hal etish hamda JST normativlari va tavsiyalarini amalga oshirish maqsadida jiddiy qayta ko‘rib chiqishilishi lozim.

1.6. Tadbirkorlik faoliyati asoslanadigan asosiy prinsiplardan biri qonuniylik prinsipi “huquq-tartibot” kategoriyasi kontekstida ko‘rib chiqilishi kerak. Umumnazariy nuqtai nazardan qaraganda, huquq-tartibot ijtimoiy munosabatlarda (ijtimoiy hayotni tashkil etishda) huquq va qonuniylikka asoslangan tartib holatidir. Ammo huquq-tartibot o‘zi bilan ro‘yobga chiqarilgan qonuniylikni ifoda etadi degan keng tarqalgan fikrni to‘g‘ri deb tan olish qiyin. Huquq-tartibotning asosiy belgisi – barcha huquqiy ko‘rsatmalarning qonuniylik prinsipiga muvofiq amal qilishi natijasida yuzaga keladigan tartib holati. Huquq-tartibotning asosi qonuniylik emas, balki huquqdir. Qonuniylik – huquq-tartibotning sharti (prinsipi). Huquq-tartibot ijtimoiy tartibning bir turidir.

II. Qonun ijodkorligi sohasidagi takliflar

2.1. Tadbirkorlik faoliyatiga aniqroq va lo‘nda ta‘rif berish maqsadida “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunga (yoki O‘zbekiston Respublikasining Tadbirkorlik kodeksi loyihasiga) tadbirkorlik faoliyatining quyidagi tushunchasini kiritish taklif etilmoqda:

“Tadbirkorlik faoliyati – jismoniy va yuridik shaxslarning qonunchilikka muvofiq hamda tadbirkorlik faoliyati prinsiplari asosida amalga oshiriladigan, o‘z tavakkalchiligi va mulkiy javobgarligi ostida tizimli ravishda daromad (foyda) olishga qaratilgan faoliyati”.

2.2. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda halollik prinsipini huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 9-moddasining to‘rtinchi qismidagi “tadbirkorlar esa – ish odobi qoidalariga ham rioya etishlari” degan so‘zlar chiqarib tashlash va mazkur qismni quyidagicha to‘ldirish taklif qilinmoqda:

“Tadbirkorlik subyektlari o‘z faoliyatini insof bilan, bir-birining huquq va qonuniy manfaatlarini hisobga olgan holda, halollik va bir-biriga ishonchga asoslangan xulq-atvor qoidalariga rioya qilgan holda amalga oshirishi shart”.

2.3. Tadbirkorlik subyektlarini kontragentlarning insofsiz harakatlaridan huquqiy himoya qilishni kuchaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksini quyidagi mazmundagi 12¹-modda bilan to‘ldirish taklif qilinadi:

“Sud bir tomonning (tomonlarning) tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish chog‘ida boshqa tomonning qonuniy manfaatlariga beparvolik bilan yoki aldash yoxud huquqni suiiste‘mol qilish yo‘li bilan adashtirish bilan ifodalangan insofsiz xatti-harakati faktini aniqlab, o‘z majburiyatlarini buzgan tomonning aybdorligining isboti sifatida halollik prinsipi buzilishi faktini baholaydi”.

2.4. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarining tadbirkorlik sohasidagi faoliyatini tartibga soluvchi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida tadbirkorlik faoliyati prinsiplarining yagona, unifikatsiyalangan ro‘yxati mavjud emas. Mazkur huquqiy bo‘shliqni bartaraf etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining Tadbirkorlik kodeksi loyihasida o‘zining quyidagi 11 ta prinsipdan iborat tadbirkorlik faoliyati tizimini qonunan mustahkamlab qo‘yishni taklif etiladi:

- qonuniylik;
- tadbirkorlik faoliyatining erkinligi;
- tadbirkorlik subyektlarining teng huquqliligi va hamjihatligi;
- raqobat erkinligi va monopolistik faoliyatni cheklash;
- shartnoma erkinligi;
- tadbirkorlik subyektlarining erkin harakatlanishi;
- mulkning barcha shakllarining daxlsizligi va yuridik jihatdan tengligi;
- tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish;
- shaxsiy va ommaviy manfaatlarining uyg‘unligi;
- tadbirkorlik subyektlarining halolligi;
- tadbirkorlik subyektlarining javobgarligi.

2.5. Tadbirkorlik kodeksi loyihasi 2-moddasining to‘rtinchi qismidan “qonunchilikdagi tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq boshqa normalar ushbu Kodeksga muvofiq bo‘lishi kerak” degan so‘zlarni chiqarib tashlash taklif etiladi.

III. Huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishga doir takliflar

3.1. Sudlar iqtisodiy ishlarni ko‘rish chog‘ida tadbirkorlik subyektlarining xatti-harakatlarini ular tomonidan qonunchilikda belgilangan tadbirkorlik faoliyati prinsiplariga rioya qilinishini hisobga olgan holda baholashlari zarur.

3.2. Sudlar iqtisodiy ishlarni ko‘rib chiqish chog‘ida halollik, oqillik va adolat prinsiplarini amalga oshirish maqsadida boy berilgan foyda, neustoyka shaklida zararni undirishda ularning miqdorini yuqoridagi prinsiplarni hisobga olgan holda, shartnoma (bitim) summasining 50 foizidan oshmaydigan miqdorda belgilashlari maqsadga muvofiq.

3.3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-sentyabrdagi “Tadbirkorlik subyektlari uchun ma‘muriy va soliq yukini yanada kamaytirish, biznesning qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–6314-son Farmoni talablarini o‘z vaqtida va so‘zsiz bajarish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ushbu Farmonning 12-bandiga muvofiq ularning mazmunini belgilagan holda tadbirkorlik sohasidagi davlat nazorati funksiyalarini ishlab chiqish va huquqni qo‘llash amaliyotiga joriy etishga doir ishlarni jadallashtirish zarur.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.37/27.02.2020.Yu.107.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ВЫСШЕЙ ШКОЛЕ СУДЕЙ ПРИ
ВЫСШЕМ СУДЕЙСКОМ СОВЕТЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**ВЫСШАЯ ШКОЛА СУДЕЙ ПРИ ВЫСШЕМ СУДЕЙСКОМ СОВЕТЕ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

МУРОТОВ НУРИДДИН НАМОЗОВИЧ

**ТЕОРЕТИКО-ПРАКТИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ РЕАЛИЗАЦИИ
ПРИНЦИПОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

12.00.03 – Гражданское право. Предпринимательское право. Семейное право.
Международное частное право

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии по юридическим наукам (PhD)

город Ташкент – 2023 год

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2022.4.PhD/Yu867.

Докторская диссертация выполнена в Высшей школе судей при Высшем судейском совете Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Научного совета (www.sudyalariymaktabi.uz) и Информационно-образовательном Портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	Насриев Илхом Исмоилович доктор юридических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Топилдиев Бахромжон Рахимжонович доктор юридических наук, профессор Абдусаломов Мирза-Улугбек Элчиевич кандидат юридических наук
Ведущая организация:	Университет общественной безопасности Республики Узбекистан

Защита диссертации состоится «25» декабря 2023 года в 9:30 на заседании Научного совета PhD.37/27.02.2020.Yu.107.01 при Высшей школе судей при Высшем судейском совете Республики Узбекистан. (Адрес: 100097, город Ташкент, Чиланзарский район, улица Чупонота, 6. Тел.: (+998)555010189; факс: (+998)555010189; e-mail: : sudyalariymaktabi@umail.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Высшей школы судей (зарегистрировано за № 14-23). (Адрес: 100097, город Ташкент, Чиланзарский район, улица Чупонота, 6. Тел.: (+998)555010189; факс: (+998)555010189; e-mail: sudyalariymaktabi@umail.uz).

Автореферат диссертации разослан «12» декабря 2023 года.

(протокол реестра № 4 от «12» декабря 2023 года).

К.О. Синдаров

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук, профессор

Д.Р. Артиков

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии (PhD) по юридическим наукам

Б.Б. Самарходжаев

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире быстрое и стремительное развитие предпринимательства предъявляет и новые требования к законодательству в этой сфере. Эффективная защита прав и законных интересов субъектов предпринимательства во многом тесно связана с реализацией принципов предпринимательской деятельности. В странах Европейского Союза, в частности в Германии, принципы применяются судами наряду с общеправовыми нормами¹.

В мире развитие цифровой экономики становится одной из наиболее обсуждаемых проблем современной науки. Несмотря на принятые решения по активизации деятельности, способствующей повышению эффективности государственного регулирования в условиях цифровизации, четкая концепция развития предпринимательского права, правил реализации принципов предпринимательской деятельности в условиях цифровой экономики до сих пор не разработана.

В Концепции совершенствования гражданского законодательства Республики Узбекистан отмечается отсутствие такого традиционного гражданско-правового института, как «справедливая компенсация», и ставится задача совершенствования действующих и внедрения новых принципов гражданских правоотношений с учетом этических принципов и духовно-нравственных норм международных стандартов и общества («честность», «справедливость», «разумность» и другие принципы). В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы поставлена цель создания условий для организации предпринимательской деятельности и формирования постоянных источников дохода, доведения доли частного сектора в валовом внутреннем продукте до 80 процентов, а в экспорте до 60 процентов (цель 29)².

